

**TOHIR MALIKNING "ALVIDO BOLALIK" QISSASIDA O'SMIR BOLALARNING  
TAQDIRLARI TAHLILI**

**Tovboyeva Gavhar**

*O'zbekiston Finlandiya  
pedagogika instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Raximova G*

*O'zbekiston-Finlandiya  
Pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola beg'ubor bolalik chog'larini baxtsiz o'tkazgan, jinoyat olamining oxiri yo'q qorong'u ko'chalarida sarson-sargardon bo'lgan o'smirlar haqidagi taniqli yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub bo'lgan "Alvido bolalik" qissasi haqida bo'lib. Bolalarning hayot yo'li va qanday qilib zulmat ichiga kirib qolganligi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *bolalik, alvido, o'smir, detektiv, tarbiya, tirik yetim, miltiq*

Hech o'ylab ko'rganmisiz bolalik qachon yakun topadi? Siz o'z bolaligingizga qachon alvido degansiz, yoki hali ham bolamisiz? Ba'zi insonlar aqlini tanidimi ulg'ayadi, ba'zi insonlar bo'lsa umrining so'ngigacha bola bo'lib qoladi. Yana bir toifa odamlar o'z vaqtida bola, o'smir, yosh, o'rta yosh bo'lib havas qilarli darajada keksayishadi. Men hozir jismoniy ulg'ayish haqida emas manan ulg'ayish haqida aytmoqchiman. Bu uch toifa insonlar ichida fikrimcha eng qiyini bolaligi bo'lmagan, go'daklikdan hayot tashvishlariga qorishib ketgan, o'z umr yo'lini o'zi tanlay olmaydigan, hattoki orzu qilishdan ham qo'rqadigan, bolalik so'zini baxt so'zi bilan bog'lay olmaydigan insonlar bo'lsa ajabmas.

Atoqli adib o'zbek qissasiga fantastik janrni olib kirgan Tohir Malik o'zining "Shaytanat" asari bilan deyarli barcha o'zbek va jahon xonadonlariga kirib borgan, xalqimiz ma'naviy kamolotiga o'z hissasini qo'shgan yozuvchidir. Uning detektiv usulda yozilgan asarlari, shubhasiz, yoshlari orasida eng ko'p o'qiladigan kitoblardir. Shu o'rinda "Alvido, bolalik" asarini ham mashhur yozuvchining detektiv asarlar turkumiga qo'shish mumkin. Adib asarda har doim muhim hisoblangan "tarbiya" masalasiga e'tibor qaratgan. Asar qahramonlari ayni psixologik o'tish davrida bo'lgan o'smirlardir. Mana shu muhim paytda tarbiyasiga e'tibor qaratilmagan yoshlar jinoyotning qaytib bo'lmas olamiga kirib ketishadi. Tohir Malik shunday deydi: "Men o'smirlar va yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolayolganlariga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, hunar o'rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko'rinsa?! Men jinoyat olamini „Shaytanat“, ya'ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, "ehtiyot bo'ling, jigarlarim, bu ko'chaga yaqin yo'lamang. Boshi berk bu ko'chaning adog'ida faqatgina azob topasiz," demoq niyatida yozdim" O'ylaymanki "Alvido bolalik" asari ham mana shu niyatning davomi sifatida yozilgan. Bu shunday asarki o'qigan kitobxon o'yg'a to'ladi. G'am-

tashvish hammada bor. Alloh bir insonga dardni, shu insonning yelkasi ko'taradigan darajada beradi. O'smir bir bola bu hayot tashvishini qanday yengib o'tsin, unga o'rgatuvchi yo'q, hol-ahvol so'rguvchi yo'q, yelkadosh bo'lish o'rniga o'z yukini ham bolaning gardaniga osadigan loqayd va beaqil ota-onalar, ustozlar xattoki butun bir jamiyat bor xolos. Hayot va hayol orasida farq ko'p. Hayolda hamma narsa bo'lishi mumkin, ammo oxirida barchasi yaxshilik bilan yakun topadi. Ertaklarda, dostonlarda, kinolarda umuman olganda baxtli yakun barchasida. Ammo hayotda dard sira tugamaydi. Baxtli yakun bo'lmaydi. Bir-birini quvib o'tayotgan kunlar yangidan yangi muammolarni yetaklab keladi. Faqat shukr va sabr qilishni bilgan insongina baxtning ta'mini his qiladi. "Alvido bolalik" asaridagi bolalarning hech biriga yaxshi o'rnak uchramadi, ular qaytib bo'lmas yo'llarga kirishdi. Asar fojiali tarzda yakun topdi. Bu hayolot emas, bu hayot achchiq hayot. Mana shuning uchun ham uni hayotiy asar, hayotning bir parchasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarni asosan, maktab yoshidagi kitobxonlarga tavsiya qilgan bo'lardim. O'ziga tengqur yoshlarning taqdiriga befarq bo'lmasdan, ular to'g'risida fikr yuritishi, ularning dardini his qilishi, hayolan ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishi kitobxonlarga yaxshi tarbiya maktabi bo'lishi aniq. Asror, Salim va Dilfuza singari murg'ak qalblar egalari vaziyat, zamon, davr qurbonlaridir. Ular xato yo'lni o'zlari istab tanlashmadi, ularni muhit shu botqoqqa itardi. Asrorning aqilli, ilg'or, ijodkor o'quvchi ekanligini hisobga olsak, uning bu tubsizlikka kirib ketishi butun bir tuzum uchun ham katta yo'qotishdir. Bir qarashda Asror xavas qilsa arzigulik o'quvchi, ammo u birgina "Baxtli bolalik" haqida insho yozishga ham qo'li bormaydigan darajada baxtsiz edi. U o'ziga o'zi shunday savol beradi: "Xo'sh inshoda nima deb yozay, kechagi voqeani yo bo'lmasa otam bilan to'yma-to'y yurishimni? Otamning o'yinchi xotinga suykalishinimi? Ming la'nat!" Salim- oilaviy sharoit natijasida adolatsiz jamiyatda g'o'r fikrlari bilan osongina sodda bir qurbon, jinoyatchi, eng achinarlisi yosh bola. Dilfuza shubxasiz nima qilganini anglab yetishga ham ulgurmagan, to'g'ri noto'g'rini farqlay olmaydigan murg'ak go'dak. Ikki oyog'i qirqib tashlangan otasining injiqliklari, onasiz qolishning azobini ko'tarsinmi bu yosh qiz yoki hayotda o'ziga tog'ri yo'l izlasinmi?

Qamariddin bolaligi bo'lmagan, hayotdan alamzada, odamlarga shubxa bilan qaraydigan bu obraz egasi avvalo odamda nafrat tuyg'usini uyg'otadi, keyinroq esa o'yga toldiradi. Asar voqealari markazida turuvchi bu bola o'zi qo'shib yana bir necha go'dakni ham botqoqqa tortib ketadi. Bu ma'noda u aybdor. O'zgarlar taqdirida ham qora iz qoldirgan gunohkor. Ammo uni shu tubsizlikka yo'naltirganlar bor, shunday insonlardan biri uning "g'amxo'r" onasidir. Ona so'zidan so'ng yomon tarif aytish mumkinmi?

- Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo'q avval sud bo'lishi kerak. Sudda gapirishim shart "Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu" deyman "Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onalaringizni topib, otib yuboring. Yolg'on gaplar to'qib, ularni yaxshi odam qilib ko'rsatmang bir-birlaringizga. Ayamay otib tashlang!" deyman. "Tirik yetimlarga miltiq bering deyman!" deyman! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli".

Qamariddinning mana shu so'zlarning o'zi kitobxonni chuqur o'ygga toldiradi. Inson yomon bo'lib tug'ilmaydi. O'ylab ko'ring a kim yoshligida yovuz bo'laman,qamalasan,qotil bo'laman deb niyyat qiladi? Hamma aybni zamonga ag'darish mumkin emas. Chunki zamonn ham insonlar yaratadi. Demak bu achchiq qismat egalarining ayanchli taqdiriga zamon emas,zamondoshlar aybdor! Yaxshi insonlar ham bor,balki ular ko'pdir ham. Lekin qaysidir ma'noda kimdir qo'rqqoqlik qilgani uchun, kimdir loqaydlik qilgani uchun gunohkordir.

Jamiyatda ildiz olib ketgan poraxo'rlik, boqibeg'amlik kabi illatlar insonlar taqdirini qanchalik yomon tarafga o'zgartirishini Keldiyorovlar oilasini qismatida ko'rishimiz mumkin. Bolaga faqat moddiy ehtiyojlarini qondirib yaxshi tarbiya berib bo'lmasligi asarda shu oila misolida yaqqol ochib berilgan. Yaxshi chin ma'noda ezgulik timsoli bo'lgan qahramonlar ham bor qissada. Masalan,Mayor Soliyev halol, to'g'risiz, o'z ishini yaxshi biladigan, haqiqatdan yuz o'g'irmaydigan, ahdida sodiq qoluvchi inson sifatida kitobxon mehrini qozonadi. Ichkilik, giyohvandlikka o'xshash illatlar inson hayotini izdan chiqarishi aniq. Kitob so'ngida ko'pgina qahramonlar taqdiri mavhumligicha qoladi. Bu esa asarning qiymatini yanada oshiradi. Yaxshi kitobxon asarni o'qib yakuniy nuqtani ham o'zi qo'yishi aniq. "Alvido, bolalik" asari xalqona, tushunarli tilda yozilgan. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar sizga, menga juda tanish, sababi biz bu so'z va ibolarlarni deyarli har kuni foydalanamiz. Bu asar har qanday o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan,hayot maktabi desam adashmasligim aniq...!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Alvido... bolalik" Tohir Malik Toshkent "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 2.[www.kutubxona.com/Turkum: Tohir\\_Malik](http://www.kutubxona.com/Turkum:Tohir_Malik)
- 3.O'zLib kutubxonasi
- 4.Rahimova.G. Ona tili va adabiyoti (Bolalar adabiyoti).- Samarqand:SamDU,2022